

Intilar borliqni inson, baxtiyor etmoq uchun

H.O.Safarova, BUX DU dotsenti,

Shodiyeva Madina, Vobkent tuman

3-son maktab ona tili, adabiyot fani

o`qituvchisi

O`zbekiston Qahramoni Erkin Vohidovning serqirra ijodi yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni ulug`lash ruhida tarbiyalashda o`ziga xos maktabdir. U umri davomida adabiyot maydonida shoir, dostonnavis, mohir publitsist, tarjimon va tadqiqotchi sifatida qalam tebratdi.

Shoir she`riyati katta ummon. Bu ummonga sho`ng`igan har bir inson o`ziga yoqqan javohirlarni topa oladi. Shoirning misralari umr yo`limizni ravshanlashtiruvchi chiroqqa o`xshaydi. Mana shu chiroq bizlarni mehnat va muhabbat bilan yashashga chorlaydi:

Tiriklik deganning o`zi bo`lmaydi,

Rizq osmondan tushmas chekib yotsang nos,

Ozroq jon koyitsa odam o`lmaydi...[1,57]

Ijodkor she`rlarining mavzular olami rang-barang. Gohida uning she`rlari insonni hayrat ummoniga g`arq qilsa, gohi uni o`ylar girdobida qolishga majbur etadi. Hayotimiz uchun shukr qilishga, kibr-u havoga berilmaslikka undaydi:

Hayot - jannat emas,

ish - emas do`zax.[1,61]

Shoir bu misralar orqali taqdirni yaratish insonning o`z qo`lidaligini, qalb ko`zi bilan yuksak marralarga olg`a intilish lozimligini ko`rsatib beradi va “Intil faqat, intilish zoye ketmaydi” satrlari yuqoridagi fikrlar isboti bo`lib jaranglaydi.

Erkin Vohidov shariyatini o`rganar ekanmiz, she`riyat ahli oldidagi mas`uliyatlarni shunday ko`rsatib beradi:

Shoirlardan doimo talab:

O`qimog`i kerak yangi she`r

Va aytmog`i kerak yangi gap.[1,10]

Haqiqatdanham, shoirlar xalq dardi, xalq hayoti bilan yashasa va o`z she`rlarida buni aks ettirib, kitobxon qalbini yondira olsagina, uning she`rlari abadiyatga yuz tutadi:

Orom bilmas shoir qalbi,
Chunki orom zavq emas. [1,7]

Shoir o`z qalbini zavq-u shavq dengizi bilan sug`orib, xayol kemasining oppoq yelkanlari ostida qalblarni zabt etishni ko`zlaydi va o`zini baxtiyor hisoblaydi:

Tanholik - shoirga dil ehtiyoji,
Xayolga oshnolik - buyuk baxtimiz.[1,50]

Erkin Vohidov o`z she`rlarida tashbehning betakror namunalarini yarata olgan ijodkordir. U bir she`rida kuzda yerga dam berish uchun ag`darib ishlov berish hodisasaini bolasini bag`riga ko`tarib yuruvchi yuklik onaga mengzaydi:

Ona tuproq esa kuz tashvishida,
Yuksak xirmonlarga siynasi yuklik.
Uning sokingina tin olishida,
Bordir onalarga xos bir buyuklik.[1,6]

Shoir anor ramzi misolida ham tashbeh qo`llaydiki, bunga tahsin aytmalikning imkoni yo`q. U biz yashab turgan zaminni, yer sharini – anor, zamindagi barcha xalqlar, elat, millat kishilarini – anor donalari sifatida ko`z oldimizda gavdalantiradi:

El-elatlar va dinlar aro –
Dona-dona sochilib ketdi
Anor kabi kesilgan dunyo...[3,25]

“Shoir qalbi” she`rida Erkin Vohidov shoirning o`z xalqi dardi, hasrati, jamiyati ichida ildiz otgan razil illatlardan otashdek qizarib yongan yuragini anor timsolida namoyon etadi. Shoir xalqini yorug` kunlar og`ushida yashashga chorlab ash`or- baytlar bitadi, bu esa anorning bag`ridan ezilib chiqqan sharbatni yodga soladi:

Shoir qalbi go`yo anor,
She`ri uning sharbat.[1,8]

So`z san`atkorining tahlilga tortilayotgan she`rlarida nafaqat tashbeh, shu bilan bir qatorda tashxis san`atidan ham unumli foydalanganiga guvoh bo`lamiz. Unda yam-yashil dalalar zumradga o`xshatilsa, zumrad dalalarning bag`riga o`zining qizilligi bilan o`t qo`yib raqs tushayotgan lola tashxis san`atini yuzaga keltirmoqda:

Zumrad dalalar bag`riga
o`t qo`ydi shafaqgun
raqs etguvchi lola.[2, 14]

Erkin Vohidov inson qalbini makon tutuvchi mehr- oqibat, darddoshlik, g`amxo`rlik tuyg`ularining ezgu ishlar poydevori ekanligini she`rlarida singdira olgan va kitobxon ham buni nozik did bilan his eta oladi. Shu bilan bir qatorda qalblarni kemiruvchi illatlar: manmanlik, xudbinlik, molparastlik, g`iybat, bo`htonga qarshi kurash ruhidagi she`rlar ham anchagina. Erkin Vohidov “Viruslar” she`rida shifokorga havas qiladi. Shoir shifokorga sochlarining viruslar bilan olisha-olisha oqarganida mo`jizaviy bir hikmat ko`rishini tuyib, menga ham shunday hikmat berilsa – she`rlarim bilan kurashardim deb yozadi:

Siz doru surgandek men qalam sursam,
Eng mudhish viruslar qirilsa edi.[1,155]

So`z ustasi asrlar davomida qonimizga kirib olgan soxtalik, mansabparastlikni viruslarga o`xshatadi. Hatto yuqumli gepatit kasalligini boylikka bo`lgan hirsni yo`qotishdanda osonroq degan fikrlar insonni o`ylashga majbur etadi:

Insof, diyonatni, or-u nomusni
Sariq chaqaga ham olmasa inson
Oltin dardi kabi sariq virusni
Yo`qotmoq mushkuldir – gepatit oson.[1,155]

Shoir momoguldirak bo`lib havo viruslardan toza bo`lmog`ini aytib, qalblardagi viruslar tiniq kelajak qurilishiga ishonch bilan o`z she`riga nuqta qo`yadi.

Erkin Vohidovning ko`ngli shunday Vatanni istaydiki, uning bayroqlari musaffo osmonda insofdek hilpirasa, tug`i , muhri mehr daraxtidan bunyod bo`lsa:

Bu vatanda bir Vatan

Qurmoqni istaydir ko`ngil,..

Ul Vatanga bayroq – insof,

Tug`i sarhad muhri – mehr.[2, 20]

Shoir aytgan so`zlar bugun ijobat. Chunki ezgu amal va pok niyatli xalqimiz o`z Vatanini butun dunyoga tanitish yo`lida harakat qilmoqda:

Faqat ezgu ishlar nasli odamni,

Marg`ub etguvsidir ikki dunyoga,

Pok niyat o`zi ham oliy savobdir. [2,96]

O`zining zalvorli umri davomida ulkan she`riy meros yaratgan, Vatanni suyib kitobxonni ham sevdira olgan, inson qalbining nozik torlarini cherta bilgan buyuk iste`dod egasi **Erkin Vohidov – borliqni baxtiyor etmoq uchun intilgan insondir.**

Adabiyotlar.

- 1.Эркин Воҳидов. Шеър дунёси. Сайланма. 2 жилд. Т.: “Шарқ”. 2001.351бет.
- 2.Эркин Воҳидов. Умрим дарёси. Сайланма. 3 жилд.Т.: “Шарқ”. 2001.414 бет.
- 3.Эркин Воҳидов. Шарқий қирғоқ. Т.: “Янги аср авлоди”. 2014.